

## FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-fevral*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 73-241-97-68*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 604 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 154 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8 450 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi

3 843,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,5 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 306,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 91,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 536,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 323,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 121,5 %) tashkil etdi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3 843,0</b>	<b>107,5</b>
<b>shaharlar</b>		
<i>Farg'ona</i>	761,2	110,4
Qo'qon	573,1	110,4
Quvasoy	58,2	105,6
Marg'ilon	465,4	107,6
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	204,8	106,7
Qo'shtepa	77,7	102,8
Bag'dod	92,7	108,9
Buvayda	180,7	102,9
Beshariq	180,3	107,8
Quva	202,9	107,0
Uchko'prik	420,7	107,1
Rishton	91,7	107,8
So'x	95,6	102,6
Toshloq	119,4	102,5
O'zbekiston	55,0	104,5
Farg'ona	111,3	102,8
Dang'ara	70,5	108,8
Furqat	37,1	104,1
Yozyovon	44,6	103,3


2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona sh(**110,4** %), Qo'qon sh (**110,4**) va Bag'od (**108,9**) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral)



So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil ,2024-yil yanvar-fevral oylari)



2024- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati **107,5 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Hajmi, mlrd. so'm

Farg'ona sh.	761,2
Qo'qon sh.	573,1
Marg'ilon sh.	465,4
Uchko'prik	420,7
Oltiariq	204,8
Quva	202,9
Buvayda	180,7
Beshariq	180,3
Toshloq	119,4
Farg'ona	111,3
So'x	95,6
Bag'dod	92,7
Rishton	91,7
Qo'shtepa	77,7
Dang'ara	70,5
Quvasoy sh.	58,2
O'zbekiston	55,0
Yozyovon	44,6
Furqat	37,1

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 19,8 % bilan 761,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,0 % bilan 37,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi


2024-yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 536,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 9,2% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,1 % ga kamaydi va 306,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining


8,0 % ulushiga to'g'ri keldi.



## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)





## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,2 %), Toshloq t (98,8 %) va Quvasoy (98,6 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik tumani (23,5 %), Farg'ona (11,8 %), shahrida kuzatildi.

8,0 %

92,0 %





Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




**Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda**



2024- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

956,2 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-fevral oylariiga nisbatan 105,3 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (2 393,0 ming. so'm), Marg'ilon (1 870,7 ming. so'm) va Qo'qon (1 870,5 ming. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-fevral), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy voki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>323,4</b>	<b>121,5</b>
<b>shaharlar</b>		
Farg'ona	36,1	210,0
Qo'qon	37,4	163,3
Quvasoy	7,0	101,5
Marg'ilon	30,8	83,6
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	9,6	132,5
Qo'shtepa	9,9	40,4
Bag'dod	21,1	341,6
Buvayda	37,1	102,8
Beshariq	42,0	157,7
Quva	28,5	144,0
Uchko'prik	8,3	84,5
Rishton	19,1	170,6
So'x	7,8	222,1
Toshloq	6,4	87,6
O'zbekiston	6,7	96,2
Farg'ona	3,3	31,1
Dang'ara	2,1	192,9
Furqat	0,2	23,6
Yozyovon	10,0	94,8


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-fevral)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 323,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 121,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 178,4 mlrd. so'mni (116,6%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 145,0 mlrd so'mni tashkil etdi (128,0 %).

2024-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 178,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (65,1 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>65,1 mlrd. so'm</b>  <b>36,5 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>17,9 mlrd. so'm</b>  <b>10,0 %</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>30,1 mlrd. so'm</b>  <b>16,9 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>8,4 mlrd. so'm</b>  <b>4,7 %</b>	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>11,6 mlrd. so'm</b>  <b>6,5 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>9,5 mlrd. so'm</b>  <b>5,3 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>5,9 mlrd. so'm</b>  <b>3,3 %</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>4,7 mlrd. so'm</b>  <b>2,6 %</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>4,0 mlrd. so'm</b>  <b>2,2 %</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>6,2 mlrd. so'm</b>  <b>3,5 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>2,0 mlrd. so'm</b>  <b>1,1 %</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>13,0 mlrd. so'm</b> <b>7,4 %</b>

2024- yilning yanvar-fevral oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 145,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 112,6 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 30,1 mlrd. so'mni, otlar – 1,5 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>63,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>43,6 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>27,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>19,1 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>21,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>14,9 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>29,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>20,3 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>1,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>1,1 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>0,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,4 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 070 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 067 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>108,5</b>	<b>106,4</b>
<b>shaharlar</b>		
Farg'ona	39,9	109,2
Qo'qon	9,4	117,1
Quvasoy	1,8	101,1
Marg'ilon	16,4	116,1
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	3,3	101,7
Qo'shtepa	2,1	108,0
Bag'dod	2,0	102,3
Buvayda	1,5	105,0
Beshariq	3,1	102,7
Quva	3,8	100,7
Uchko'prik	3,7	94,7
Rishton	2,6	103,1
So'x	2,9	96,6
Toshloq	3,2	94,1
O'zbekiston	1,8	92,8
Farg'ona	3,6	94,0
Dang'ara	2,9	97,7
Furqat	2,5	97,6
Yozyovon	2,1	98,8

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 108,5 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 96,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>696,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	196,0	28,1
Qo'qon	351,2	50,4
Quvasoy	1,8	0,3
Marg'ilon	48,3	6,9
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	1,1	0,2
Qo'shtepa	0,9	0,1
Bag'dod	2,9	0,4
Buvayda	3,3	0,5
Beshariq	0,9	0,1
Quva	1,1	0,2
Uchko'prik	5,6	0,8
Rishton	1,2	0,2
So'x	6,7	1,0
Toshloq	5,9	0,8
O'zbekiston	1,1	0,2
Farg'ona	1,2	0,2
Dang'ara	19,5	2,8
Furqat	10,5	1,5
Yozyovon	37,6	5,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (351,2 mlrd. so'm), Farg'ona (196,0 mlrd. so'm) va Marg'ilon (48,3 mlrd. so'm) shahalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 696,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 277,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 161,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 419,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 3,0 m ko'paydi) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 438,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga o‘ydi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 152,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,3 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 794 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 24 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 770 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko'prik t (1,4 m.), Quva t (1,3 m.) va Farg'ona (1,2 m.) shaharlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2 438,7</b>	<b>112,5</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	641,1	118,9
Qo'qon	543,0	108,8
Quvasoy	42,6	104,8
Marg'ilon	499,9	111,2
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	62,6	101,3
Qo'shtepa	30,3	101,9
Bag'dod	20,4	104,7
Buvayda	46,2	107,1
Beshariq	16,9	105,0
Quva	27,0	128,4
Uchko'prik	187,7	137,7
Rishton	4,9	103,9
So'x	2,3	111,5
Toshloq	147,8	102,6
O'zbekiston	34,4	105,6
Farg'ona	58,3	101,0
Dang'ara	53,4	106,1
Furqat	9,9	96,2
Yozyovon	9,9	100,8